



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



XITOIY TA'LIM SHIORLARINI STRUKTURAVIY XUSUSIYATLARI

B.U.G'iyosov

TDSHU doktoranti:

+998998901840, giyasovbobur@gmail.com

ANNOTATSIYA: *Hozirgi vaqtda Xitoyda shiorlarni o'rganish faol o'sish bosqichida ekanligini aytish mumkin. Yangi asrning so'ngi yillarida shiorlarni o'rganish sezilarli darajada faollashdi, filologlar va sotsiologlar tegishli muammolarni o'rganishga ko'proq e'tibor berishni boshladilar, asarlar soni sezilarli darajada oshdi, ular orasida turli jihatlariga bag'ishlangan ko'plab qiziqarli asarlar mavjud. shiorlar turi va birinchi navbatda akademik ilmiy jurnallarda bizni qiziqtirgan muammoga bag'ishlangan asarlar nashr etiladi. Bu muammo doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalarida ham tadqiqot obyektiga aylangan. Bundan tashqari, shiorlar sohasidagi asosiy masalalardan tashqari, ozmi-ko'pmi chekka masalalari ham o'rganilmoqda. Biroq ularning barchasi shior muammosi bilan bog'liq.*

Tayanch so'z va iboralar: *Xitoy shiorlari, lozung, slogan, xitoy ta'lim shiorlarini strukturaviy xususiyatlari.*

АННОТАЦИЯ: *В настоящее время можно сказать, что изучение лозунгов в Китае находится в стадии активного роста. В последние годы нового столетия изучение лозунгов значительно активизировалось, филологи и социологи стали уделять больше внимания изучению связанных с ними проблем, значительно увеличилось количество работ, среди которых немало интересных работ, посвященных различным аспектам. типа лозунгов и, прежде всего, работ, посвященных интересующей нас проблеме, публикуются в академических научных журналах. Данная проблема стала объектом исследования докторских и кандидатских диссертаций. Кроме того, помимо основных вопросов в области лозунгов изучаются и более или менее маргинальные вопросы. Однако все они связаны с проблемой лозунгов.*

Опорные слова и выражение: *китайские лозунги, лозунги, лозунги, структурные особенности китайских учебных лозунгов.*

ABSTRACT: *At present, it can be said that the study of slogans in China is in a stage of active growth. In the last years of the new century, the study of slogans has become significantly more active, philologists and sociologists have begun to pay more attention to the study of related problems, the number of works has increased significantly, among which there are many interesting works devoted to various aspects. types of slogans and, first of all, works devoted to the problem of interest to us are published in academic*



scientific journals. This problem has also become the object of research in doctoral and candidate dissertations. In addition, in addition to the main issues in the field of slogans, more or less peripheral issues are also being studied. However, all of them are related to the problem of slogans.

Keywords and expression: Chinese slogans, slogan, slogan, structural features of Chinese educational slogans.

KIRISH.

Shiorlar Xitoy xalqi hayoti va madaniyatida juda muhim hodisadir. Bu xitoylarning hayoti va tiliga shu qadar chuqur ta'sir qiladiki, uni o'rganish va o'zbek tiliga tarjima qilish kerak. Shiorlardan foydalanish insoniyat tarixining barcha davrlarida keng tarqalgan hodisa. Chunki, xitoyliklarning o'zlari uchun ular doimo ko'z oldida ko'riladigan shiorlardagi g'oyalar, tabiiyki, ularning xulq-atvor kodeksiga aylanadi. Xitoy shiorlari davlat hayoti, hodisalari, urf-odatlar bilan bevosita bog'liq va shu davrlariga mansub bo'lgan tarixni tushunishga imkon beradigan lingvokulturologik fenomen sifatida qarash mumkin. Xitoyda shiorlarni o'rganish madaniy ahamiyatga ega lingvistik hodisa sifatida olimlar va mutaxassislarning e'tiborini o'ziga tortmoqda.

MAQSAD VA VAZIFA.

Tadqiqotning maqsadi Xitoy ta'lim shiorlarini strukturaviy xususiyatlarini aniqlash. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi:

1. Xitoy ta'lim shiorlarni tuzilishi munosabatlari turlarini aniqlash;
2. Xitoy ta'lim shiorlari tuzilishi to'g'risidagi mavjud ilmiy-nazariy qarashlarni aniqlash;
3. Olib borilgan tahlil natijalariga ko'ra ilmiy xulosa berish.

USULLAR.

To'plangan materiallarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib tavsifiy va semantik tahlil usullaridan foydalanildi.

ERISHILGAN NATIJALAR.

Xitoy ta'lim shiorlarning strukturaviy xususiyatlari. Shiorlarda jumlar va iboralardan tashqari, maxsus komponentlar ham bo'lishi mumkin. Aslida qo'llaniladigan nutq bo'lagi sifatida shior mustaqil va nisbatan erkindir. Insonlar nutq bo'lagining bunday turiga duch kelganda shiormi yoki shior emasmi deb farqlay olmaydilar.

1) **Bir jumladan tashkil topgan gap tuzilishi** 单句式结构 – [dān jù shì jiégòu]. Bu tuzilmaning shiori bir jumladan iborat bo'lib, targ'ibotchining qarori va niyatini to'g'ri va lo'nda ifodalashi va aks ettirishi, shuningdek ta'lim shiorini eslab qolish va o'qishi oson bo'lishi lozim. Ulardan ba'zilar asosan bayonot shaklida bo'lib, tinch ohangda bayon qilish va mulohaza yuritish bilan, targ'ibotchining maqsadini ko'rsatadi.

Masalan: “Tabiat bilan uyg'unlikda yangi insoniyat sivilizatsiyasini quring” 建立与大自然和谐相处的人类新文明 – [jiànli yǔ dà zìrán héxié xiāngchǔ de rénlèi xīn wénmíng].



2) **Qarama-qarshi ko‘taruvchi struktura** 对举式结构 – [duì jǔ shì jiégòu]. Bu turdagi ta’lim shiorlar tuzilish shakli ikki gapda iborat va bu ikki gap bir-biriga mutanosib. Chunki oldin va keyin ikki gap qarama-qarshi ma’noga ega. Bu shiorlarning ichki aloqa va boy mazmunini o‘z ichiga oladi va insonlar taassurotlarini shior o‘zida jamlaydi va esda saqlashni osonlashtiradi.

Masalan: “Bo‘sh gaplar yurtni yo‘ldan ozdiradi, mehnat esa yurtni yoshartiradi” 空谈误国, 实干兴邦 – [kōngtán wù guó, shígàn xīng bang].

3) **Jumlalar bir qator bo‘lib, gap tuzilishi** 排比式结构 – [páibǐ shì jiégòu]. Bu turdagi ta’lim shiori tuzilishi parallel qatlamli bo‘lib, shior mazmuni va shakli o‘quvchilarni ilimga chaqirish uchun xizmat qiladi, shuningdek, ma’lum bir haqiqatni bosqichma-bosqich tushuntiradi.

Masalan: “Yashirin xavf yong‘inning oldini olishdan yaxshiroqdir” 隐患险于明火防范胜于 – [yǐnhuàn xiǎn yú mínghuǒ fángfàn sheng].

4) **Jumlalar parallel bo‘lib tuzilishi** 并列式结构 – [bìngliè shì jiégòu]. Bu ta’lim shiori tuzilish jihatidan sodda va mazmunan boy, ushbu tuzilmaning shiori o‘quvchilarga turli talablarni ko‘rsatishi, ularning o‘quv faoliyatini har tomonlama tushunishlari va kelajakda kasb egallashlari uchun qaratilgan. Bu ta’lim shiori nafaqat ta’lim, balki odob-axloq qoidalarini ham tushuntiradi. Shu sababli, ushbu tuzilmali ta’lim shiori o‘quvchilar uchun ularning ish vazifalari, maqsadlari va xulq-atvor me‘yorlarini aks ettirish uchun qo‘llaniladi.

Masalan: “Xalqqa xizmat qiling, xalq bilan birga yashang va xalqni rozi qilishni hohlang” 为人民服务请人民监督 让人民满意 – [wéi rénmín fúwù qǐng rénmín jiāndū ràng rénmín mǎnyì].

5) **Jumlalar qatlamli bo‘lib tuzilishi** 层递式结构 – [céng dì shì jiégòu]. Bu ta’lim shiori tuzilish jihatidan qatlam-qavat, mazmun jihatidan esa o‘quvchilar ilm olishlari uchun motivlovchi, rag‘batlantiruvchi, ogohlantiruvchi kuchga ega,

Masalan: “Butun oila azob cheksa, jamiyat azoblanadi” 全家遭殃, 社会受害 – [quánjiā zāoyāng, shèhuì shòuhài].

Ta’lim shiorlarni tuzilish munosabatlari turlari 标语句法结构关系的类型 – [biāoyǔ jùfǎ jiégòu guānxì de lèixíng].

1) Shiorning ichki komponentlari o‘rtasidagi munosabatiga ko‘ra, shior tuzilish munosabatini quyidagi turlarga ajratishimiz mumkin. **Fe‘l-obyekt yoki fe‘l-to‘ldiruvchi tuzilish** 述宾结构 – [shù bīn jiégòu]. Bu struktura ta’lim shiorlarida keng qo‘llaniladi. Asosiy qism ma’lum bir xatti-harakatni bildiruvchi fe‘l bo‘lib, ikkinchi qismi obyekt, ya’ni ikki qisimli hokim va tobe munosabatini bildiradi.

Masalan: “Kuniga bir soat mashq qilish, bir umir sog‘lom va baxtli hayot poydevori” 每天锻炼一小时, 健康幸福一辈子 – [měitiān duànliàn yī xiǎoshí, jiànkāng xìngfú yībèizi].



2) **Ega-kesim tuzilish** 主谓结构 – [zhǔ wèi jiégòu]. Subyekt predikat struktura shiorlarda keng qo‘llaniladi. Bu tuzilish subyekt va predikatdan iborat bo‘lib, bu ikkisining o‘rtasidagi o‘zaro munosabatdir.

Masalan: “Millat boyligi va davlat boyligi - bu mamlakatning kuchli armiyasi” 民富不忘国富, 国富更盼兵强 – [mín fù bù wàng guófù, guófù gèng pàn bīng qiáng].

3) **Atributiv tuzilish** 偏正结构 – [piān zhèng jiégòu]. Atributiv munosabatlar, agar tobe komponent predmetning belgisini, sifatini bildirsa va ko‘p hollarda qanday degan savollarga javob beradi. Xitoy tilida atribut vazifasini bajaruvchi sifatlardan tashqari, to‘g‘ridan-to‘g‘ri atributiv sifatida ishlatiladigan otlar shiorlarda juda keng tarqalgan.

Masalan: “Ishga yahshi kayfiyatda boring, uyga esa sog va salomat qayting” 高高兴兴上班来, 平平安安回家去 – [gāo gāoxìng xìng shàngbān lái, píngpíng ān‘ān huí jiā qù].

4) **Qo‘shma tuzilma** 联合结构 – [liánhé jiégòu]. Qo‘shma so‘zning qismlari o‘rtasida muvofiqlashtiruvchi (kopulativ) bog‘lanish bilan erkin munosabat yuzaga keladi, bir qismi ikkinchisiga bog‘liq bo‘lmaydi, demak, ikkala qism ham teng semantik munosabatda bo‘ladi. Kopulativ qo‘shilish deganda funksional-sintaktik va semantik jihatdan teng morfemalarning (leksemalarning) qo‘shilishi tushuniladi, jami bir ma‘no beradi⁸⁷. Shiorda qo‘shma tuzilmalar juda kam bo‘lib, asosan fe‘l, sifat va otlarning yonma-yon qo‘shilishida tuziladi. Qo‘shma tuzilmaning shiorlari asosan maktablar, korxonalar va boshqa bo‘linmalar banner va plakatlarida kuzatish mumkin.

Maslan: “Men sevgan go‘zal vatan” 爱我家乡 美丽家园 - [ài wǒ jiā xiāng měilì jiāyuán].

XULOSA.

Xitoy ta‘lim shiorlarning strukturaviy xususiyatlari 5 turga ajratilindi.

- 1) *Bir jumladan tashkil topgan gap tuzilishi* 单句式结构 – [dān jù shì jiégòu].
- 2) *Qarama-qarshi ko‘taruvchi struktura* 对举式结构 – [duì jǔ shì jiégòu].
- 3) *Jumlalar bir qator bo‘lib, gap tuzilishi* 排比式结构 – [páibǐ shì jiégòu].
- 4) *Jumlalar parallel bo‘lib tuzilishi* 并列式结构 – [bìngliè shì jiégòu].
- 5) *Jumlalar qatlamli bo‘lib tuzilishi* 层递式结构 – [céng dì shì jiégòu].

Xitoy ta‘lim shiorlarni ichki komponentlari o‘rtasidagi munosabatga ko‘ra tuzilish munosabatlarini quyidagi turlarga ajratishimiz mumkin.

- 1) Fe‘l-obyekt yoki fe‘l-to‘ldiruvchi tuzilish 述宾结构 (shù bīn jiégòu).
- 2) Ega-kesim tuzilish yoki sintaktik tuzilish 主谓结构 (zhǔ wèi jiégòu).
- 3) Atributiv yoki tobe-hokim tuzilish (偏正结构 (piān zhèng jiégòu)).
- 4) Qo‘shma tuzilma 联合结构 (liánhé jiégòu).

⁸⁷ А.Л.Семенов О синтагматической семантике копулятивного сложения в китайском языке // Исследования по китайскому языку. Сб. статей / Подред. В.М.Солнцева. М.: Наука, 1973. - С. 63 // Semenas A.L. Xitoy tilida kopulativ qo‘shilishning sintagmatik semantikasi haqida // Xit. tilini o‘rganish / Qayta tahrirchi V.M.Solntsev. M.: Nauka, 1973 yil 63 b.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov, A. A. (2022). The Problem of The Grammatical Category of The Chinese Language. *Texas Journal of Multidisciplinary Studies*, 5, 226-229.
2. Каримов, А. А. (2021). СООТНОШЕНИЕ ПОНЯТИЙНОГО И АССОЦИАТИВНОГО НАЧАЛО В ИЕРОГЛИФИЧЕСКОМ ПИСЬМЕ (на примере иероглифа 日 «солнце»). *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(Special Issue 1), 76-81.
3. Каримов А.А. Выявление исконных и приобретенных значений иероглифов 念, 讀, 看 (сравнительный анализ японского и китайского языков). // *Материалы международной конференции по японоведению. Цукуба .Ташкент., - 2020.*
4. Белоусова Н.П. Основные характеристики слогана как субжанра современного российского рекламного дискурса: автореф. дис. канд. филол. наук: 10.02.01. Самара, 2006. – С. 16.
5. Чжу Вэнь. Дискуссия о китайских лозунгах: Современная филология // *Лингвистическое исследование. – Ланьчжоу, 2008. – С. 10.*
6. Чжэн Инь. О культурных различиях в китайских и английских лозунгах // *Бизнес для всех (Общественный бизнес). – Чжэцзян, 2009. № 9, – С. 52.*